



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!



2025-yil 23-yanvar, payshanba,
9 (24.035)-son

O'zbek xalq
maqoli

Bilganingni
eldan
ayama

Har kim bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mansabdar shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasidan.



Sayyor qabul



FUQAROLARNI OLIY SUD RAISI O'RINBOSARI QABUL QILDI

Oliy sud raisining o'rribosari Olimjon Ismoilov viloyat sudida aholi uchun sayyor qabul o'tkazdi. Qabulda 32 nafar fuqaroning sudlar faoliyati bilan bog'liq murojaatlari ko'rib chiqildi.

Har bir murojaatga alohida e'tibor qaratilib, qonunga muvofiq keladiganlari ijobiy hal qilindi, Oliy sud vakolatiga doir masalalar bo'yicha arizalar qabul qilindi va huquqiy tushuntirish berildi.

Samarqand tumanida yashovchi Sh.Qayumov fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga taftish tartibidagi shikoyat bilan murojaat qilganligini

bildirib, mazkur shikoyat ko'rib chiqilgunga qadar quyidagi hujjatining ijrosini to'xtatib turishga amaliy yordam so'radi. Sh.Qayumovning murojaatlari hujjatlar asosida o'rganib chiqildi va shu yerning o'zida qanoatlantrildi.

Qabul davomida sodir qilgan jinoyati uchun jazoni o'tayotgan 7 nafar shaxs pushaymonligi, qilmishidan tegishli xulosa chiqqarganligi, bundan buyon sog'lom turmush tarzida yashab, ibratli hayot kechirishini bildirib, jazodan ozod qilishni so'radi. Shu yerda Samarqand shahar sudining sayyor sud majlisini tashkil etlib, har bir holat alohida ko'rib chiqildi va qonunga muvofiq keladigan murojaatlari ijobiy hal etildi.



AHOLI BILAN YUZMA-YUZ

Kecha Kattaqo'rg'on tumanida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev va viloyat sektor rahbarlari, Xalq qabulxonasi mas'ullari ishtirotida sayyor qabul o'tkazildi.

Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Narpay, Paxtachi tumanlari va Kattaqo'rg'on shahri aholisi uchun tashkil etilgan qabulda fuqarolar turli masalalar yuzasidan viloyat rahbarlariga murojaat qildi.

Murojaatlarning asosiy qismini yer va mol-mulkni rasmiylashtirish, kadastr hujjatini tayyorlash, sud qarorlarini-

ing ijrosi, aliment undirish va hududlardagi infratuzilmani yaxshilash bilan bog'liq masalalar tashkil etdi.

Qabulda viloyat boshqarma va idoralari, tashkilotlar rahbarlari ham ishtirot etgani bois aksariyat murojaatlar tegishliliqi bo'yicha mas'ullarga yo'naltirildi va shu yerning o'zida hal etish choralar ko'rildi. O'rganish va vaqt talab qiladigan muammollar bo'yicha muddat belgilanib, nazoratga olindi.

Sayyor qabulda 332 ta murojaat qayd etildi.

Viloyat sektor rahbarlarining navbatdagi sayyor qabuli 24-yanvar kuni Payariq tumanida o'tkazilishi belgilandi.

JICA prezidentiga xurmo berildi

Kecha Samargand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutiga Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) prezidenti Akixiko Tanaka boshchiligidagi delegatsiya keldi.

Dastlab mehmonlar institut fakiliyati bilan tanishdi.

- Institutimiz qishloq xo'jaligi va agrar sohada mutaxassislar tayyorlaydi, - dedi institut rektori Sh.Hasanov. - Biz jahon standartlariga mos kadrler tayyorlash yo'lida xorijiy olyi ta'llim muassasalar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatalib, ular bilan turli loyihalarda samarali ishlar olib boryapmiz. Masalan, institut JICA hamda Tokio qishloq xo'jaligi va texnologiyalar universiteti bilan hamkorlikda "Samarqanda xurmo mevasini quritish orqali qishloq aholisi daromadini oshirish" loyihasi ustida ish olib boryapti. 2023-2026-yillarda amalga oshirish rejalashtirilgan ushbu loyihaning umumiy qiyomi 1 million AQSh dollarini tashkil etadi.

Delegatsiya a'zolari institutda xurmo ni quritish loyihasida olib borilgan ishlar bilan tanishdi. Mahalliy sharoitda yesitshtirilgan xurmo mevasini qanday quritish usuli bugun institutda sinov-tajribadan o'tkazilyapti. Bir oy davomida quritilib, sotishga tayyor bo'lgan xurmo mevasidan yaponiyalik mehmonlar ham tatib ko'rish-



di. Ushbu quritigan xurmolarni shartnomaga asosida mahalliy savdo do'konlariga sotish rejalashtirilgan. Loyha doirasida institut kodimlari tomonidan aholiga xurmo mevasini quritish o'rnatiladi.

Yaponiyalik mehmonlar institutda amalga oshirilayotgan boshqa loyihalari bilan ham tanishdi hamda institut hovlisiga manzarali daraxt o'tqazishdi. Institut rahbariyati kelgusida Yaponiya olyi ta'llim muassasalar bilan yanada istiqbolli loyihalari ustida ishslash istagi borligini bildirdi.

Akixiko Tanaka boshchiligidagi delegatsiya shu kunga qadar poytaxtda O'zbekiston-Yaponiya davlatlarining samarali hamkorligi borasida uchrashtuvlar o'tkazdi. Delegatsiyaning hamkorlik uchrashtuvlari davom etyapti.

Kurshida ERNAZAROVA.



Prezident qaroriga ko'ra



Davlatimiz rahbarining 2022-yil 23-dekabrdagi «Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida Samarqandda zamonaviy moddiy-teknika va o'quv mashq bazasiga ega bo'lgan hududiy gimnastika sport turlariga tayyorlash markazini tashkil etish belgilangan.

Gimnastika markazi

ZAMONAVIY SPORT MUASSASASI BO'LADI

Samarqand shahrida gimnastika markazini qurish ishlari boshlangan bo'lib, quruvchi bosh pudratchi tashkilot – "Agromir Buildings" mas'uliyati cheklangan jamiyatni tomonidan ishlar bajarilmoqda.

- Mazkur obyekt qurilishini 2023-yilda boshlaganimiz, - deydi "Agromir Buildings" MChJ muhandisi Saidmurod Kunuzogov. - Qurilishning birinchi bosqichida gimnastika zalini shu yilning fevral oyida foydalanshiga topshirish rejalashtirilgan bo'lib, hozirda binoning tashqi qismi va ichkarisida pardozlash ishlari olib borilmoqda. Qurilishning ikkinchi bosqichida oshxona va yotoqxonalar qurilishi davom etyapti, uchinchi bosqichda esa ishlar to'liq yakunlanadi va markaz joriy yilning may oyida to'liq qurib bitkaziladi.

Viloyatimizda bugungi kunda 160 nafarga yaqin murabbib qo'lstida 4,5 ming nafardan ziyod sportchi gimnastika sport turlari bilan shug'ullanadi. Viloyat gimnastika sport turlariga ixtisoslashgan sport maktabi respublikada yetakchi bo'lib, maktabning 25 nafar sportchisi milliy termal jamaoning asosiy va zaxira tarkibiga qabul qilingan. Bundan tashqari, tuman va shahar sport maktablarida gimnastika sport turlari bo'yicha 20 ga yaqin bo'lim faoliyat ko'rsatmoqda. Gimnastikachilarimizning 80 nafardan ortig'i O'zbekiston, 6 nafari Osiyo championi, 2 nafari Osiyo o'yinlari g'olib, 2 nafari jahon kubogi championi va sovrindori bo'lgan.

- Gimnastika markazi gimnastika sport turlariga ixtiso-



slashgan sport maktabi negizida barpo etilmoqda, - deydi ushbu maktab direktori Jasur Nurmonov. - Markaz sport zal, besh qavatlari yotoqxona va oshxona hamda ma'muriyat binosidan iborat. Qarorga ko'ra, inshoot Samarqand, Buxoro, Navoiy, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari uchun xizmat qiladi. Yoshlar badiyi gimnastika, sport gimnastikasi,

sport akrobatisi va trampolin turlari bilan shug'ullanadi. Markazga 2025-2026-o'quv yilidan 7 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 132 nafar iqtidorli o'quvchi-sportchi qabul qilinadi. O'qish muddati 11 yil bo'lib, har yili 12 nafardan o'quvchi qabul qilinadi va bitiruvchilarga gimnastika sport turlari murabbibi mutaxassisligi beriladi. Asosiyi, gimnastika sport turlari rivojlanadi, yoshlarning sportga qamrovi oshadi, iqtidorli sportchilar seleksiya qilinib, termal jamao-larga yetkazib beriladi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.



Biz uchun odatga aylangan holatlar javobgarlik keltirib chiqaradi. Ko'pincha huquqimiz bo'la turib bilmaganimiz tufayli undan foydalanolmaymiz. Shu sabab kundalik hayotimizda dolzarb ahamiyatga ega ayrim qonun hujjalardan misollar keltirishni lozim topdik.

Gazetamizning ushbu "savol-javob" sahifasi bo'yicha fikr-mulohazalarining bo'lsa tahririyat manzillariga yoki @zarafshonbot telegram messengeri orqali murojaat qilishingiz mumkin.



UY-JOYNI TA'MIRLASH UCHUN

120
MILLION SO'MGACHA
120

IMTIYOZLI
KREDIT

AJRATILADI

- Uy-joyni ta'mirlash uchun 120 million so'mgacha imtiyozli ipoteka krediti kimlarga ajratiladi?

- Ushbu kredit "mahalla yettiligi" tavsiysi asosida 18 yoshga to'lgan va 60 yoshdan oshmagani O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga ajratiladi. Kredit hisoblangan foizlarni va asosiy qarzni to'lov jadvaliga muvofiq har oyo da to'lash uchun yetarli hamda qonunchilik hujjalardan taqilganmagan daromad manbaiga, shu jumladan, shaxsiy yordamchi yoki dehqon xo'jaligindan yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan daromadiga ega bo'lgan fuqarolarga ajratiladi. Daromadga ega bo'lmaganlarda bunday imkoniyat yo'q.

Shuningdek, qarz yoki ko'satskii barcha kreditlari va mikroqrarlar bo'yicha o'rtaча oylik to'lovlari tasdiqlangan o'rtaча oylik daromadlarining 60 foizidan yuqori bo'lmasiyi hamda kredit ajratishni ko'rib chiqish vaqtida sizning kredit tashkilotlaridan avval olinigan kreditlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligingiz mavjud bo'lnasligi lozim.

Asosiyasi, ilgari bozor tamoyillariaga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'mirlash dasturi doirasida ipoteka kreditlariidan va ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiyalardan foydalanmagan bo'lishi kerak. Yana rekonstruksiya qilinadigan va ta'mirlanadigan yakka tartibdagi uy-joy yoki yakka tartibdagi uy-joy quriladigan yer uchastkasi o'ziga yoki bilan birgalikda yashovchi yaqin qarindoshlaridan biriga tegishli ekanligi va mazkur manzilda kamida 6 oy davomida doimiy ro'yxatda turgan bo'lish lozim.

- Ushbu ipoteka kreditlari shartlari qanday va qancha miqdorda subsidiya ajratiladi?

- Yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash maqsadlari uchun Markaziy bankning asosiy stavkasi (13,5 foiz) dan to'rt foiz bandga yuqori (17,5 foiz) stavkada 120 million so'mgacha miqdorda, 20 yilgacha muddatda ipoteka kreditlari ajratiladi.

Ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badalning bir qismini qoplash uchun ajratiladigan kreditning 15 foizi miqdorida hamda foiz to'lovlarning bir qismini qoplash uchun kredit muddatining birinchi besh yili davomida 12 foizdan oshgan qismiga subsidiya to'lanadi.

- Subsidiya olish uchun qanday tartibda ariza yuboriladi?

- Yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash uchun ajratiladigan ipoteka kreditlari bo'yicha dastlabki badal va foiz xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar subsidyplatform. mf.uz platformasi orqali ariza yuboriladi.

- "Mahalla yettiligi" qaysi holatlarda tavsiyanoma berishni rad etishi mumkin?

- "Mahalla yettiligi" tomonidan quyidagi holatlarda kredit ajratish rad etiladi:

- ariza beruvchining oilasi Dasturga kiritilmagan bo'lsa;
- ariza beruvchi uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj hisoblanmasa;
- ariza beruvchi shaxs yoki uning turmush o'rtog'i mazkur imtiyozidan avval foydalangan bo'lsa;
- ariza beruvchi shaxs davlat tomonidan avval berilgan ijtimoiy yordam va ko'nimalardan maqsadsiz foydalanganligi to'g'risida tegishli tashkilotlarning ma'lumotlari mavjud bo'lsa;
- qurilish, rekonstruksiya qilinishi va ta'mirlanishi nazarda tutilayotgan uy-joy yoki u yolashtigan yer uchastkasiga nisbatan ashayovi huquq nizoli bo'lganda.

Savollarga Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi bosh iqtisodchisi Azamat QOSIMOV javob berdi.



"MAKTABGA TELEFON OLIB BORSAM BO'LADIMI?"



Ayrim hollarda ayni masala yuzasidan tushunmovchiliklar, ba'zan tortishuvlar bo'lib turadi.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil qabul qilingan qaroriga ko'ra, ta'lim muassasasiga kirib kelishishda har bir ta'lim oluvchi, xodim, keluvchi va boshqa shaxslar o'z telefonini abonentining chaqiruv ovozini to'liq o'chirib qo'yishi (telefonni "ovozsiz" rejimga o'tkazishi) shart.

Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari va tadbirlar (saflanish, tarbiyaviy soatlar, bayram, sport tadbirlari va shu kabilalar) boshlanishidan oldin ta'lim oluvchilar:

- telefonini o'chirib qo'yishi;
- telefonini portfeli, sumkasi va shu kabilarga solib qo'yishi shart.

Ta'lim oluvchilarga quyidagilar qat'iyan taqila-

nadi:

a) telefonini bo'yning osib olish, ko'krak cho'ntaklarida, shim, yubkalari cho'ntaklarida va shu kabilarda saqlash;

b) telefon akkumulyatorini zaryadlash uchun ta'lim muassasasi elektr tarmoqlariga ulash;

v) telefon yordamida:

atrofdagilarga zo'ravonlik, shafqatsizlik, pornografiyaning targ'ib qiluvchi video va suratlarni namoyish qilish; ta'lim muassasasining nufuziga, shu jumladan,

zo'ravonlik va vandalizm holatlarni suratga olish va keyinchalik ularni atrofdagilarga namoyish etish yo'lli bilan zarar yetkazish;

g) o'quv mashg'ulotlari vaqtida:

telefon orqali so'zlashish hamda SMS (MMS) va boshqa turdag'i xabarlarini jo'natish;

telefonni stol ustiga qo'yish;

musiqa, shu jumladan, naushniklar orqali tinglash;

surat va video tasvirlarni ko'sartsida telefonidan foydalanish (o'yinlar bilan shug'ullanish), tasvir (matn, rasm, videoyozuv va fotosuratlar) ko'rish, diktofon, kalkulyator, kalendar, bloknot, yon daftarcha kabilalar sifatida foydalanish;

suratga olish va video tasvirga tushirish;

telefon (GPRS, bluetooth, internet va shu kabilalar) orqali boshqa xizmatlardan foydalanish.

Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilarga mashg'ulotlar va tadbirlar oraliq'ida faqat asosli va kechikrib bo'lmaydigan zarur holatlarda ota-onasi (ularning o'nini bosuvchilar), yaqin qarindoshlari, ta'lim muassasalarining rahbarlari yoki xodimlari bilan zudlik bilan bog'lanish maqsadida telefonlardan foydalanishga (qo'ng'iroq qilishga, SMS, MMS, GPRS jo'nishga, bluetooth, internet va shu kabilalar xizmatidan foydalanishga) ruxsat etiladi.

YODDA TUTING! Mashg'ulotlar va turli tadbirlar oralig'ida telefon orqali so'zlashish uchun xonadan yo'lakka yoki foyega chiqish, past ovozda va qisqa muloqot qilish zarur.

Skuterni "PRAVA" bilan boshqaring

Joriy yil skuter va mopedni davlat ro'yxatidan o'tkazib, ularni boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasini olmaganlar jarimaga tortiladi.

Odamlar orasida shunday gap yuribdi. Bu gaplar qanchalik asosli?

- To'g'ri gap. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-iyuldag'i "Foydalishda bo'lgan moped va skuterlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqidagi" qaroriga ko'ra:
- dvigatelining ish hajmi 25 sm3 va undan ortiq, lekin 50

sm3dan oshmaydigan, shuningdek, elektr dvigatelining quvvati 0,25 kilovatt va undan ortiq, biroq 4 kilovattdan oshmaydigan, konstruktiv tezligi soatiga 25 kilometr va undan ortiq, lekin 50 kilometrdan oshmaydigan transport vositalari (moped va skuter) uchun alohida ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari joriy etiladi hamda bu turdag'i transport vositalari belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Foydalishda bo'lgan bu turdag'i transport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning oxirgi kuni 2025-yilning 28-fevral hisoblanadi.

- Joriy yil 1-martdan ushbu turdag'i transport vositalarini boshqarish uchun tegishli toifadagi haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lish talab etiladi.

Sahifani O'.XUDOYBERDIYEV hamda Y.MARQAYEV tayyorladi.

Bilmaslik, bilganingni qilaver, deganimas

Oilaviy janjal tufayli bir tanishim 15 sutka qamalibdi. Kelinni yaqinlari huquq-tartibot idoralarida ishlagan uchun "deleo" qilishgan deyapti. Shu haqda nima deya olasiz?

- Qarashlaringiz xato. Negaki, bugungi kunda qonunchilikda xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro'zg'or asosida birlgilikda yashayotgan shaxsn yoki umumiy farzandiga ega bo'lgan shaxsn do'pposlash, ushbu shaxslarga sog'lining qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'Imagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Qonunga ko'ra, bunday harakat bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.



Kripto-aktivlar savdos...

Notcoin, hamster va shunga o'xshash kripto-aktivlarni sotish uchun javobgarlik bormi?

- Bor. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga ko'ra kripto-aktivlarni qonunga xilob ravishda olish, o'tkazish yoki ayrboshlash quyidagi javobgarlikdan biriga sabab bo'lishi belgilangan:

- kripto-aktivlarni hamda mazkur huquqburzilklarni sodir etish qurollarini musodora qilib, o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoq;

- ma'muriy qamoq qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 30 baravarigacha jarima (olti million sakkiz yuz ming so'mdan 10 million ikki yuz ming so'mgacha).



Bankdan qarzdor chetga chiqoladimi?

Bugun ko'pchilikni qiziqtiradigan bir savol bor – bankdan qarzdorlik bo'lsa, chetga chiqishga taqiq qo'yiladimi?

- Bankdan kredit oltan shaxs kredit shartnomasi shartlariga muvofiq to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirib kelayotgan bo'lsa, xorijga chiqishiga hech qanday cheklow bo'lmaydi.

Unutmang! Xorijga chiqish huquqingizni hech kim cheklay olmaydi (asosli bo'lsa, faqatgina sud har qanday huquqingizni cheklashi mumkin.)

Krediti bo shaxs faqatgina bir holatda xorijga chiqsa olmaydi. Qarzdorlik sudga oshirilib, sunder hal qiluv qarorlari chiqarilganda va kredit qarzdorligi iyo (MIB)ga qaratilganda chetga chiqishga taqiq qo'yiladi.



Tinchlikning qadriga yetish uchun urush bo'lishi shart emas

Jahonda ro'y berayotgan voqealardan, jarayonlarni kuzatib boraman. Urush bo'layotgan yurtlarni ko'ryapsizmi? Ularda na qonun va na inson qadr-qimmati goldi. Odamlar hayotini saqlab qolish uchun kurashmoqda. Shunday damlarda tinch yurtda yashayotganiz, farzandlarimiz bag'rimizda ekanligi uchun Allohga behisob shukurlar aytaman.



Yaqindagi bir shifixonada navbat kutib, beixtiyor mendan oldin-roqda turgan ikki ayloning suhabatini eshitib qoldim. Biri qaynonasi bilan bir xonadonda yashashini aytib, yangi uy ololmayotganligidan shikoyat qilsa, ikkinchisi eri ishlamayotgani, pul yo'qligi uchun gashtaklarni qoldirayotganidan nolidi. Ikki "bechora" gapira-gapira o'z baxtsizligining aybdorini ham topishi - bu davlat ekan. U qaynonasi bilan kelishmaydigan kelinlarga yangi uy, dangasa erlarga katta maoshli ish berishi kerak emish.

Qiziq, shunday fikrlaydigan insonlar dunyoning nariqi tomonida nimalar bo'layotgani, odamlar qanday g'am-tashvish bilan yashayotgani bilisharmikan?! Mehnat qilgan yaxshi yashaydigan, aqlini ishlatgan boy bo'ladigan zamonda, eng muhimi, tinch va osoyishta davlatda yashayotgan bo'lsak, buning uchun shukur qilishni ham bilishimiz lozim. Bugunimizning qadriga yetish uchun urush nafasini his qilishimiz shart emas. Xalqimiz yaqin o'tmishida mustamlakachilik, urush, qatag'on va hatto ocharchilikni ham ko'rgan. Buni unutishga haqqimiz yo'q.

Xudoyer BAHODIROV.

Bugun an'anaviy bosma nashrlar bilan bir qatorda elektron nashrlardan ham keng foydalanimoqda. Bosma nashrlar o'rnnini asta-sekinlik bilan elektron nashrlar egallab borayotir. Kitob, darslik, o'quv qo'llanma, gazeta, jurnal va hatto jahon adabiyotining yorqin namunalari ham endilikda elektron shaklda nashrdan chiqarilmoxda. Shu o'rinda elektron nashr o'zi nima, degan savol tug'ilishi mumkin. Elektron nashr - bu bosma usulda nashrdan chiqarilgan manbalarning muqobil varianti bo'lib, ular bosma nashrlarda bo'lmagan ba'zi bir xususiyatlari, jumladan, axborot uzatish tezligi, foydalinish uchun qulayligi bilan ajralib turadi.



Elektron nashrlarning qanday afzallikkali bor?

Bulardan tashqari, bosma nashr ga qaraganda elektron nashrni ishlab chiqarish kam mablag' talab qiladi. Misol uchun, an'anaviy bosma nashrlarda chop etish, muqovalash, tarqatish, dizayn va boshma xarajatlar kitob narxiga qo'shiladi. O'z-o'zidan mijoz kitobni sotib olayotganda shular uchun ham to'lnvi amalga oshiradi. Elektron nashr uchun esa mijozlar faqtigina

mualifining mashaqqatli mehnati va mualif ko'zlagan aniq foysa uchun haq to'laydi.

Elektron nashrlarda foto va video illyustratsiyalar, giper matnlar, audio fayllarni qo'shish imkoniyati mavjud.

Qolaversa, qog'oz tayyorlash uchun ishlatalidigan sellulozoza asosan yog'ochdan olinadi. Ma'lumotlarga ko'ra, har yili dunyo

bo'yicha 15 milliard daraxt nobud bo'ladi. Bir tonna ofis qog'ozini tayyorlash uchun 24 ta daraxt kerak bo'lar ekan. Endi elektron nashrlardan foydalanshi orqali qancha daraxtni saqlab qolishimiz mumkinligini chamlab ko'ravering.

Elektron formati ber vaqting o'zida yuzlab kitoblarni olib yurish imkonini beradi. Kitobdan foydalinish uchun esa sizga faqat mobil telefoningiz, planshet yoki noutbuk vositalarining o'zi yetarli.

Elektron nashr foydalananuvchilarini matn hajmini istaganlaricha katta yoki kichraysiaishirishlari mumkin. Bu esa matnini qulayroq o'qish imkonini yaratadi.

Kitob, darslik, monografiya, o'quv qo'llanma, jurnal va shu kabilarni dunyoning istalgan joyidagi, istalgan vaqtida o'qib va yuqlab olishlari mumkin.

Yugorida sanab o'tilgan jihatlar elektron nashrlarning ahamiyati, hayotimizni naqadar osonlashtira olishi mumkinligini ko'rsatadi. Faqat ulardan samarali foydalansak kifoya.

Laziza MO'MINOVA,
SamDU talabasi.

Qorli kun qadriyati

majurlab kirgizgan bo'lsa, endi majburlab ko'chaga chiqarishadi. Qor yog'ishini bizdek intiq kutadigan, chang'i va qo'lopollarini tayyorlab qo'yadiganlar goldimikin? Qor yog'ishni biz uchun qishki o'ynilar boshlanganini anglatardi. Hozir-chi?..

Shunday xayollar bilan qor kezib yurgandim, ortimda kimdir ohista yo'taldi. Safar bobo uzun hassasiga suyanib, sekin qadam tashlab kelyapti. Ko'pni ko'rgan bu otaxonni mahallamizning yoshu qarisi hurmat qiladi.

- Assalomu alaykum, boba! Salomatligingiz yaxshimi? Bugun qor rosa qalin yog'ibdi-ya?

Safar bobo muloyim tabassum bilan javob berdi:

- Va layakum assalom, qizim. Ha, qish degani shu-da. Bolaligimda qor bundan ham qalin yog'ardi.

- O'shanda nima qilardingiz? Do'stlingiz

bilan qorbobo yasardingizmi?

Safar bobo o'g'ir xo'sisib, bir necha soniyalik suktudan keyin so'z boshladi:

- Qizim, sen bilmaysan. O'sha vaqtlar biz qor yog'ishini o'yin emas, dam olish uchun kutardik. Qor yog'sa, paxta maydonlarda terim tugardi, yoshu qari daladan uyg'a qaytardi. Qor uyimizga tinchlik olib kelardi. Qo'ni-qo'shnilar bir-birdan hol so'rardi, suhbat kechalari bo'lardi. Bir safar otam bilan qor kezib, mahallamizdag'i bir xasta ayolni shifokorga olib borganmiz. Juda qiyin bo'lgan.

O'sha vaqt otam aytgan gap menqa bir umr saboq bo'lgan: «Qanchalik qiyin bo'lmasisin, harakat qilishdan to'xtama va qiyinchiliklarni yeng». Mana, qiyinchiliklarni yengdik, ajib zamонлар кeldi. Qorni zavq uchun tomosha qilsa ham bo'larkan.

Vasila MUZAFFAROVA,
talaba.

REKLAMA, E'ONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Fotoelektr stantsiyasi qurish loyihasiga qiziqish bildirgan yuridik shaxslarni

MASLAHAT UCHRASHUVIGA TAKLIF ETAMIZ!

Toza energiya loyihasi bo'yicha qiziqqan tomonlarni "Samarqand viloyati Samarqand shahridagi Cho'ponota tepaligida yangi fotoelektr stantsiyasini qurish" nomli loyihami amalga oshirish uchun maslahatlashuv uchrashuviga taklif etamiz.

Uchrashuvning maqsadi: loyihaning ekologiyaga, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy tomonlama ta'sirlari, uning nafaqat jamiyatga, balki atrof-muhitga ham foyda keltirishini muhokama qilish.

Uchrashuv o'tkaziladigan sana:

2025-yil 26-fevral.

Uchrashuv o'tkaziladigan vaqt: 10:00.

Uchrashuv o'tkaziladigan joy:

Samarqand viloyati qurilish va uy-joy kommunal xalqili boshqarmasi.

Uchrashuvda ishtirok etishdan maqsad:

- "Samarqand viloyati Samarcand shahridagi Cho'ponota tepaligida yangi fotoelektr stantsiyasini qurish" loyihasi toza energiya rivojiga va barqaror rivojanish maqsadlariga erishishga qanday hissa qo'shishini bilib olish;

- loyihaning mahalliy ehtiyojlarga mos bo'lishi uchun fikr-mulohazalarinig va takliflaringizni bildirish;



- loyihaning ekologiyani asrashtagi foydalari, yangi ish o'rinnari yaratish va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish.

Uchrashuvda xalqaro tan olingen "Gold Standard" ekologik va ijtimoiy standartlarga javob berishini nazotat qiladigan tashkilot vakillari ishtirok etadi.

Sizning ishtirokingiz ushbu tashabbusning muvaffaqiyati uchun muhim.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun biz bilan bog'laning:

Elektron pochta: office@tepelen.com
Telefon: +99890-028-26-59.

PAXTA HAMDA SABZAVOT, POLIZ VA BOSHQA EKINLAR YETISHTIRUVCHI SUBYEKTALAR DIQQATIGA!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantrish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-106-sonli qaroriga asosan tumanlarda

2025-yilda urug'lik paxta hamda sabzavot, poliz va boshqa ekinlar urug'liklarini yetishtirish huquqiga ega bo'lish uchun subyektlar o'rtaida tanlov o'tkaziladi.

Tanlovi shaffoflik va adolatliti o'tkazilishini ta'minlash maqsadida "e-urug'" (e-seeds) axborot tizimida tanlovi tashkil etish va o'tkazish bo'yicha loyiha ishga tushirilishi kutilmoqda. Ishlab chiqilgan loyiha asosan 2025-yil 1-fevraldan boshlab ishga tushirilishi kutilayotgan "e-urug'" (e-seeds) tizimi orqali hujjatlar qabul qilinishi belgilangan.

Belgilangan (ixtisoslashgan) hududlar bo'yicha tanlova ishtirok etish istagi bo'lgan subyektlar joriy

ylining 1-fevralidan ishga tushirilishi kutilayotgan "e-urug'" (e-seeds) tizimi orqali o'rnatilgan tartibda ariza topshirishlari mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlar "Urug'chilikni rivojlantrish markazi" DM Samarqand viloyat boshqarmasi tomonidan beriladi.

Murojaat uchun telefon:

+99866-233-78-80, +99890-601-01-55,

+99898-558-71-92.



bo'vich notarial idorasida marhum Muinov Orzikulga (2011-yil 25-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Shohrux Mirzo ko'chasi, 26-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisrovna notarial idorasida marhum Faxratova Alina Stanislavovna (2023-yil 14-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisrovovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Paxta hamda sabzavot, poliz va boshqa ekinlar urug'liklarini yetishtirish huquqiga ega bo'lish uchun subyektlar o'rtaida tanlov o'tkaziladi.

Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Rustamov Shuxrat Abdumuratovichga (2024-yil 2-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

BEKOR QILINADI

"MU INSURANCE" MCHJ SK "Registon" SXMga tegishli quydagi sug'urta polislari yo'qolganligi sababli bekor qilinadi: 0012807, 0028921, 0028947, 0028948, 0028950, 0073920, 0073952, 0073954, 0073957, 0073960, 0073962, 0073963, 0073964, 0073965, 0073966, 0073967, 0073968, 0073969, 0073970, 0073973, 0073974, 0073976, 0073979, 0073980, 0073983, 0073988, 0073989, 0074002, 0073992, 0073993, 0074004, 0074037, 0012801, 0028901, 0028914, 0061565, 0061566, 0061568, 0073977, 0073985, 0073990.

Nazoratchilar: SamDU 1-son davolash ishi fakulteti dekani t.f.d., prof., G.U.Lutfullayev hamda SamDU o'quv bo'limi boshqili'i G.E.Tastanova.

DA'VOLAR BO'LSA...

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Turayeva Maxbuba Kaynarovnaga (2023-yil 14-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Xusainov Shermamat Isayevichga (2017-yil 20-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiye Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Xodirjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Achilova Melixol Ummatovnoga (2024-yil 5-iyunda vaf

Samarqand shahridagi O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi tarkibida 11 ta muzey, 3 ta tarixiy obida va 2 ta ko'rgazma zali bor. Ularda 240 mingga yaqin eksponat bo'lib, ikki mingdan ziyod ashyo temuriylar davriga tegishli.

Jumladan, Samarqand davlat muzey qo'riqxonasida Amir Temur maqbarasining o'rganilishi tarixi va temuriylar davriga oid ekspozitsiya bo'lib, unda 60 dan ortiq eksponat namoyish etilmoqda. Muzeydagisi asosiy ashylardan biri Amir Temur davrida zarb etilgan tangalar bo'lib, unda Amir Temur ismi hamda Sohibqiron hokimiyatinining ramzi bo'lmish uchta aylana halqa aks ettirilgan. Shuningdek, archa daraxtidan yasalgan, Amir Temur maqbarasi xilxonasidagi qabrdagi turgan ikki metrlik tobut ham noyob eksponat hisoblanadi.

Samarqandda temuriylar davriga oid qanday eksponatlar saqlanmoqda?



AMIR TEMUR ZARB QILDIRGAN TANGALAR VA SOHIBQIRON TOBUTI

- Temuriylar davriga oid ashylarning ak-sariyati arxeologik va numizmatik eksponatlar, - deydi O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi tarix bo'limi mudiri To'lqin Bo'riev. - Ulardan biri Amir Temur zorb qildirgan kumush tangalar bo'lib, 1991-yilda Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarini bog'lovchi Taxtqoracha dovonidan topilgan. Hozirda 33 ta tangadan iborat kolleksiya muzey fondida saqlanadi. Shunga o'xshash tangalar Ishtixon tumanidan ham topilgan. Tobut esa 1941-yilda Amir Temur maqbarasidagi qabrarni oshish ishlardira chiqarib olingan va qayta dafn etishga yaroqsiz bo'lgani uchun qaytarib joyiga qo'yilmagan. Tobut o'tgan asrning 70-yillarda O'zFA arxeologiya instituti olimi, professor A. Abdurrazoqov rahbarligida restavratsiya qilingan va Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi ga topshirilgan. 1941-yilning 16-24-iyun kunlari hukumat ekspeditsiyasi tomonidan Amir Temur maqbarasidagi qabrni biring-ketin ochiladi. 1941-yilning 24-iyunida Amir Temur maqbarasidagi qazishmalar yakunlanib, qabrlardan chiqarib olingan Amir Temur, Mironshoh, Shohruh, Ulug'bek va Muhammad Sultonlarning suyaklari maxsus qutilarga jöylanib, Toshkentga olib ketiladi. 1942-yilning oxirlariga kelib, Amir Temur maqbarasidan qazib olingan suyaklar ilmiy jihatdan o'rganib bo'lingach, qaytadan o'z joyida dafn etiladi. Lekin tobut bilan birga qabrlardan olingan gazlamlar, Mirzo Ulug'bekning liboslari, marhumlarning mo'miyolangan tana a'zolarini, kafanlar, soch-soqollarini qayta o'z joyida qo'yilmagan, tobutning qopqog'i va tobut ustiga yopilgan gazlama bo'lagi ham Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondida saqlanmoqda.

AMIR TEMUR MAQBARASI ESHIKLARINING TABAQASI

Temuriylar davriga oid Amir Temur maqbarasi eshilarning katta va kichik tabaqasi ham ekspozitsiyada namoyish etilmoqda. Shunga o'xshagan eshikning bir tabaqasi Buyuk Britaniyadagi shahzoda Albert muzeysi, yana bir eshik tabaqasi Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeysiда saqlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu eshik orqali Amir Temur maqbarasiga sharqiy tomonidan kirligani. Eshik mustahkam, chiroli, o'ymakorlikda ishlatalishda qulay bo'lgan gerek yong'og'i daraxtidan yasalgan. 1996-yilda mazkur eshik maqbaradan olingan va konservatsiya hamda restavratsiya ishlari uchun muzej-qo'riqxona fondiga qabul qilingan.

ME'MORCHILIK BEZAKLARI VA QURILISHDA ISHLATILGAN TOSHLAR

Keyingi ashylar Amir Temur maqbarasi ochilishi dalolatnomalari nusxalar bo'lib, O'zFA Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxividagi aslidan nusxa olingan. Shuningdek, navbatdagi vritinada Amir Temur davriga oid me'morchiлик bezaklari va shovul toshlar namoyish etilgan. Ulardan eng asosiyulari Samarqand shahridagi Ashratxona binosining me'moriy bezagi parchasi bo'lib, o'rtaida hikmatli yozuvlar yozilgan. Namoyish etilayot-

gan mayda va katta toshlar shovullar vazifasini bajargan. Bo'rtma bezaklar, ya'ni kundal, ba'zi bir joylarda oltin bilan bezatilgan.

TEMURIYLAR DAVRIGA OID KULOLCHILIK BUYUMLARI VA YAKTAK

Tarixchi To'lqin Bo'rievning ta'kidlashicha, muzyedagi kulolchilik buyumlari XIV-XV asrlarga oid bo'lib, Samarqanddan topilgan. O'sha davrda chinniga qiziqish kuchli bo'lganligi sababli, idishlarga oq sir, ko'k rangli bezaklar berish orqali Xitoydagchi chinniga o'xshatib yashashga harakat qilingan. Shuningdek, metall buyumlar ham XV asrda oid bo'lib, Samarqand shahridagi Registon maydoni yaqinidan topilgan. Bundan tashqari, 1960-yilda Nemsova boschchiligidagi arxeologlar guruhi tomonidan Shohi Zinda majmuasidagi Amir Temuring lashkarboshi Amir Burunduq maqbarasidan topilgan yaktak ham noyob ashyo sanaladi. Yaktak (xalat) 13-14 yoshida shahid bo'lgan yosh yigitchaga tegishli bo'lib, ipak matodan tikilgan. Yaktak o'tgan asrning 70-80-yillarda Ermitaj muzeysiida restavratsiya qilinib, Samarqand muzeiyiga topshirilgan.

SOHIBQIRON SAROYIDAGI MASHHUR "KO'K TOSH"

- O'tgan asrning 50-60-yillarda Amir Temur arki a'losi o'rnda olib borilgan arxeologik qazishma ishlari vaqtida topilgan bir nechta tosh buyumlar saqlanib kelinmoqda, - deydi T.Bo'riev. - Ulardan biri Sohibqiron Amir Temuring saroyida taxtingin ostida bo'lgan mashhur "Ko'k tosh"dir. Ushbu taxtosti toshi 1960-yillarda maqbura hovlidan ko'chirib keltilirgan bo'lib, uning ustida bo'lgan taxtda Amir Temur davlatni idora etgan. Temuriylardan keyin ushbu tosh Samarqandda Amir Temur saroyida saqlangan bo'lib, Buxoro xonlari va amirlarining taxtga o'tirish marosimlari ushbu tosh ustida amalga oshirilgan. Ayniqsa, ushbu udum mang'it amirlari hukmronligi davrida oq olgan bo'lib, agarda hukmdorning taxtga o'tirish marosimi mazkur tosh ustida amalga oshirilgan bo'lsa, u hukmdor o'zini to'laqonli amir deb hisoblamagan. "Ko'k tosh" Amir Temur davridan XIX asr oxirlarigacha Turkistonda hukmdorlik, toju taxt ramzi bo'lgan.

HADISLAR TO'PLAMI, VAQF HUJJATI, QO'LYOZMALAR VA JANGOVAR NOG'ORA

Samarqand shahridagi Mirzo Ulug'bek muzey-majmuasida temuriylar davriga oid, Abdullohab Tabbadol-Hiraviyning Samarqand qog'ozida yozilgan hadislar to'plami ham bo'lib, ushbu kitob madrasa talabalari uchun maxsus tayyorlangan.

Mavarounnahrda Amir Temur va Ulug'bek davrida yerlarni in'om qilish tizimi yo'iga qo'yilib, yer solig'i kamaytiriladi. Buni hozirda saqlanib kelinayotgan qo'lyozma hamda "vaqf" hujjalardira ham ko'rish mumkin. Shuningdek, mazkur muzeyda XV asrda tegishli, balandligi 24 santimetri bo'lgan jangovar nog'ora, Mirzo Ulug'bekning XV asrda nashr etilgan "Yulduzlar katalogi" ham saqlanmoqda.

Fazliddin RO'ZIBOYEV tayorladi.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2025-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 201 nusxada chop etildi. Buyurtma 37. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LMILAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

"YASHIL OROL"

Nurobod tumanining olis cho'li: bir tomoni Qizilqum cho'li bilan, bir tomoni Muborak cho'li va bir tomoni Qarnab cho'li bilan tutash. Yozi jazrima-yu, qishi izg'irin, muttasil uvillagan shamol esib turadigan bu manzilda biror giyoh undirish juda mahol yumush.

Ana shunday sharoitda o'z tashabbusi bilan yashil hudud yaratayotgan bir chorvador haqida eshitib, u haqida maqola tayyorlash maqsadida o'sha olis manzilga borishga qaror qildik. E'tiborimizni tortgan jihatni o'sha chorvador yigit, o'tgan yili o'z kuchi bilan qariyb besh yuz getkar maydonda saksov ekibi. Bu yil ham o'sha ishlarini davom ettirayotgan ekan.

Tan olish kerak, ba'zan erta ko'klam hovlimizga ikkita cho'p suqib qo'yishga hafsasida qilmay, keyingi yilga qoldiramiz. U bo'lsa...

Safarimiz kuzning so'ngi kunlariha to'g'ri keldi. Mayin yomg'ir yog'ib turar, mezonlarning maksus mashinasi eski bo'lsa-da, loyli o'nqir-cho'nqir yo'llardan, qir yonbag'irlaridan ildam ketib borardi. Ba'zan tekis, ba'zan notejis yo'llar, suv yig'ilayotgan soyliklardan kechib ketardik. Yo'Ining esa oxiri ko'rinay demasdi.

Toshli soy yo'llaridan, ko'imaklardan chayqalib-chayqalib ketayotgan mashinadan xavotirlanib, "Biron joyda botib qolmaymizmi, qaytishimizgacha sel toshqini kelib qolmasmikan", deb so'rayment xavotirli ohangda mahalliy haydovchidan.

"Sel kelib qolsa, bir kun qolarsiz mehmon bo'lib, cho'pon otarlari keng", deydi hazilomzu tabassumi bilan haydovchi. Shustob ko'z oldimdan cho'ning o'rtasidagi chorvadorlar boshpasasida, atroflarda bo'ri, shoqollar izg'ib yuradigan g'aribona qo'nalg'ada tong ottirish keldi...

Hayolimda Jek Londonning "Bir kunlik qo'nalg'a" asari voqeliklari gavdalandi. To'g'ri bu yerlarda tun, Yukon daryosi bo'yidagi izg'irin, u qadar dahshatlari bo'limasa-da, baribir cho'l sharoiti... U yerda bir kecha - ming kechadegi tuyulishi aniq. Xayolchan ketayotgan edik, sal nariroda sakkovullarni panalab ketayotgan yungordi bir narsa ko'rindi. «Ana tulki», dedi hamrohim o'sha tomonni ko'rsatib. Yo'limizda ungacha yumronqozig'u, echkiemarlardan bosqha jonivor ko'rinnayotgan edi.

- Bu atrofdan bo'ilar bo'limaydim? Cho'ponlarda militiq bormi, bo'rilardan qanday himoyalanadi? - so'rayment haydovchi akadan.

- Bu joylarda tulki, shoqollar ko'p, bo'ri faqat qalin qor yoqqan paytlari bo'lishi mumkin. Qaytishimizda kechga qolsak, balki shoqollarni ham ko'rsatman, - dedi hamrohim jilmayib va bu gap menha qanday ta'sir qilishini zimdan kutazdi.

"CHO'L MALIKASI"

Biz yo'lda davom etardik, mashina oynasigacha sachrayotgan loylarga beparvo hamrohim xotirjam mashinani boshqarar, meni o'sha olis hududga olib borishni, cho'ponlarning chin ha-yoti bilan tanishirishga astoydil kirishgan edi. Qirralarda bahorgi mayssalar sarg'ayib, kuzgi issiqdan qayta nish urg'an shuvoqlar, do'mpaygan sakkovullar va yana qanaqadir o'simliklar uchradir. Shunda baland qirlar ustidan bir tekis haydalgan shudgor izi va unda ko'klagan sakkovulla qo'rimiz tushdi.

"Cho'l malikasi" deya ta'riflanadigan sakkovul - cho'ning najot daraxti. Qurg'oqchilikka moslashgan bu nabotot namunasidagi sidda yashirishni maqsad qildik. O'mron xo'jaliklardan sakkovul urug'i olib kelib, 500 getkar yerga awal traktorda yermi haydab, ko'pchilik harakat qilib, bir oy davomida ekib bo'ldik. Niyatimiz xolis ekan, bu yil bahor seryog'in keldi. 90 foiz urug' ko'kardi, hozir sakkovul orasiga kavrak ekyapmiz, - deydi G'ulom aka ...

Sal nariroda biz yo'qlab kelayotgan chorvador G'ulom Almatov bizni qarshi oldi va yaqin kelib, "Xush kelibsizlar, qadamlarigingiz xayrlar ekan, baraka keltirdingiz", deya so'rasha boshladi.

"O'zimiz bilan yomg'ir olib keldik, bu kishi mehmon", deb tanishitdi haydovchi akamid. Ular yomg'ir haqida qandaydir to'lg'inalanib gapirgani e'tiborimni tordi.

Yaylovlarni yayov kezarkanniz, chorvador akamiz so'z boshladi:

- Sizga aytasam, cho'ponlarni yo'qlash uchun eng ajoyib vaqt bi - yomg'ir yog'agotgan payt. Biz chorvadorlarda, "Yomg'ir yog'sa, cho'pon uyqusida ham kulib ugraydi", degan gap bor. Ishonsangiz nigohlarimiz doim ko'kka qadalgan. Doim osmondan baraka yomg'iri tusharkanmi deb kutamiz. Yomg'ir yog'sa, dashtlar ko'klaydi. Chorva to'q bo'ladi. Rizqimiz shu ob-havoga, inqiq tabiatga bog'liq. Shuning uchun cho'ponnikiga yomg'ir payti borgan inson - eng aziz mehmon hisoblanadi.

PREZIDENTIMIZ TASHABBUSI BIZGA MADAD BO'LDI

Yo'lda biz ko'rgan sakkovullardan qilingan "yashil qalqon"ga yondosh hududlarda ikkita traktor ishlayotgan ekan. Besh-olti chog'li kishi esa uning ortidan yerga urug' sochar, ish juda qizq'in ketaypti.

- Xitoylik bir inson yolg'iz o'zi, cho'lni obod qilganini ko'rdim.

Nega bi'z uddalay olmaymiz, deb aka-ukalar harakatga tushdik. Prezidentimizning yashil makon yaratish bo'yicha tashabbuslari bizga madad bo'ldi. O'zimiz unib-o'sgan shu cho'lni obod qilishni, yashil belbos' yaratishni maqsad qildik. O'mron xo'jaliklardan sakkovul urug'i olib kelib, 500 getkar yerga awal traktorda yermi haydab, ko'pchilik harakat qilib, bir oy davomida ekib bo'ldik. Niyatimiz xolis ekan, bu yil bahor seryog'in keldi. 90 foiz urug' ko'kardi, hozir sakkovul orasiga kavrak ekyapmiz, - deydi G'ulom aka ...

CHORVA ORTIDAN 20 SUTKALAB PIYODA YURGANMIZ...

Otarlar atrofida yem-xashash g'arammlari xuddi Misr piramida-lari shaklida baland qilib, taxlab qo'yilgan ekan.

- Chorva qishlovgi hozirlik ko'rib qo'yidik. Xashak, yemishdan ko'ngil to'q, - deydi cho'pon akamiz. - Qo'ylnarni kuniga ikki marta o'tlatishga haydaymiz. Kunduz bir, kechasi bir.

Mashinadan tushganidam buyon, yomg'irdan junjikib pana izlaganima xijolat tortdim. Axir cho'ponlar bir ketishda shu havoda besh-olti soatlab ketar ekanda.

- 2022-yil bahor quruq kelib, qo'ylnarni Zomin tomoniga haydagan edik. Ishonsangiz, shu ketishda dekabr oyi oxirida podani qaytardik. Piyoda yo'l yurib, 20 kun deganda otarlarimizga yetib kelganimiz. Sovuq, jazrima degan narsalar biz cho'ponlar uchun ikkilamchi. Chorva bir kun joyida turib qolsa ta'siri sezildi, - deydi chorvador. - 13 yoshimda otamdan cho'pon tayog'ini olganman. Shunda bu kasbni o'zimga taqdир qilgaman. Ota-bobolarimiz shu kasbdan kun kechirgan. Biz aka-ukalar ham cho'ponlikdan oila bo'yapmiz.

Otarlarni ko'zdan kechirarkanmiz, chorva to'q, qorako'I qo'yalar terisi juday bejirin edi.

Cho'pon amakning aytilashicha, avallari qorako'I teriga talab katta bo'lganidan, qo'zichoqlar tug'ilgandan so'yilib, terisi olinar ekan. Hozir esa, qo'zichoqlarning 90 foizi o'strishga qoldirilar, faqatgina onasi kasal bo'lganlariga teriga topshirilan ekan.

Tevarak-atrofni chorvalarni ko'zdan kechirib, cho'pon uyi yoniga keldik. Uy atrofidagi katta-katta bo'riboslar bizga yotsirab qarab, sal bezotlandiyu, saldan keyin ko'nikma hosil qildim, indamay qoldi.

Cho'ponning uyi men tasawur etgandek g'aribona emas ekan. Hartugol yonida "Kobalt" avtomobili turibdi, mashina ichiga bir nazar tash